

UMAR SAYFIDDINNING “FARMON” HIKOYASI TARJIMASIDA TARJIMON MAHORATINING IFODALANISHI

(Expressing translation skills in translating the story of Umar Saifiddin
"Farmon")



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-393-398>

Zuhriddinov Biloliddin Xiloliddin o‘g‘li,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti, o‘qituvchi
e-mail: Bilol9394@icloud.com
tel: +998974778979

ANNOTATSIYA

Shaxsiy ijod fikr, izlanish bilan paydo bo‘lsa, tarjima asarlari mos so‘zlar bilan vujudga keladi. Chunki tarjima qilinadigan asarda tayyor fikr, tayyor g‘oya mavjud. Tarjimon unga shakl va chiroylar ifodalananadigan mantiqan teran so‘z topishi kerak. Bu so‘z tanlashning o‘zi ham ijodkorning lug‘at boyligi, o‘tkir didi, nozik ta’biga bog‘liq ijodiy jarayondir.

Kalit so‘zlar: tarjimon mahorati, hikoya, madaniyat, tahlil, obrazlilik.

ABSTRACT

When personal creativity emerges through thought and research, translated works come into being with appropriate words. Because the work to be translated has a ready idea. The interpreter must find a logical word that is formally and beautifully expressed. The choice of the word itself is a creative process that depends on the vocabulary, sharp taste and delicate nature of the creator.

Keywords: interpreter skills, story, culture, analysis, imagery.

KIRISH

Turk hikoyachiligining mumtoz vakili, jurnalist Umar Sayfiddin 1884 yili Turkiyaning Belikesir shahrida dunyoga keldi. Avval Usmoniya maktabida, so‘ngra harbiy bilim yurtlarida o‘qigan Umarning ilk ijod mahsuli 1900 yili “Majmuai adabiyya”da chop etildi. 1906 yili Izmirdagi jandarm maktabiga o‘qituvchi bo‘lib ishga kirdi. Shu yillarda Izmirda chop etiladigan “Sebat”, “Xizmat”, “Sarbast” kabi gazetalarga maqolalar yozdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Umar Sayfiddin harbiy harakatlarda ishtirok etarkan, ijodni ham tark etmadi. 1911 yili “Yosh qalamkashlar” jurnalida uning “Yangi lison” nomli maqolasi chop etildi. Maqolada milliy tilni asrab qolish, boshqa tillardan so‘z olgandan ko‘ra, uning milliy muqobillarini topish, adabiyotni xalq tiliga yaqinlashtirish kabi jiddiy masalalar ko‘tarilgan edi. Uning “Bahor va qaldirg‘ochlar”, “Qo‘zg‘olish xabari”, “Primo Turk bolasi”, “Ont” va “Ishq to‘lqini” kabi hikoyalari ham ayni shu jurnalda bosildi. Xususan, muallining “Farmon” hikoyasi mohir tarjimon Xayrulla Hamidov va Gulnoza Mirsaidova tomonidan tarjima qilingan. Umar Sayfiddin o‘z mamlakati va millatini qattiq sevgan va uning kelajagi uchun qayg‘urgan vatanparvar yozuvchi edi. XX asr boshida turk jamiyatida katta siyosiy kuchga ega bo‘lgan ayrim guruuhlar tomonidan mamlakatni tarqoqlikka, xalqni mahdudlikka yetaklaydigan qarashlar targ‘ib etilayotgan, millat va din tushunchalari inkor etilayotgan bir sharoitda milliy birlik g‘oyasi, o‘zlikni anglash, xalqni yagona milliy g‘oya atrofida jipslashtirish ehtiyoji tug‘igan edi. Umar Sayfiddin bu tarixiy zaruratlari teran ilg‘ab, o‘z asarlarida millat rivojiga to‘sinq bo‘layotgan illatlarning ildizlarini, vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg‘usini xiralashtirayotgan salbiy jihatlarni haqqoniy ko‘rsatdi, zamondoshi ahloqiy-ma’naviy fazilatlarni tarbiyalashni eng muhim vazifa deb bildi.

Umar Sayfiddin asarlari bugungi kunda boshqa ko‘plab davlatlar qatori o‘zbek kitobxonlari uchun ham juda sevimalidir. Uning ko‘plab asarlari allaqachon o‘z o‘quvchilarini topgan va ularning yuragidan joy olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Umar Sayfiddinning tarixiy harakterga oid asarlaridan biri “Farmon” hikoyasi bo‘lib, u, o‘lim jazosiga hukm qilingan odamning o‘z farmonini bir bekka yetkazib berish vazifasi yuklatilgan Tosun bey haqida. Podishohiga sadoqat bilan xizmat qilgan, xiyonat neligini bilmagan holda, tuxmat girdobiga tushib qolgan shijoati-yu, jasurligi bilan tillarga doston bo‘lgan Tosun bey haqida hikoya qilinadi.

Ma’lumki, bir tildan ikkinchi tilga ag‘darish tarjimondan ulkan mahorat va ijodkorlik talab etadi. Prof. Safarboy Ro‘zimboev aytganiday, “Shaxsiy ijod fikr, izlanish bilan paydo bo‘lsa, tarjima asarlari mos so‘zlar bilan vujudga keladi. Chunki tarjima qilinadigan asarda tayyor fikr, tayyor g‘oya mavjud. Tarjimon unga shakl va chiroyli ifodalananadigan mantiqan teran so‘z topishi kerak. Bu so‘z tanlashning o‘zi ham ijodkorning lug‘at boyligi, o‘tkir didi, nozik ta’biga bog‘liq ijodiy jarayondir” [Ro‘zimboyev S., 2015: 34].

Tarjimonning mahorati asardagi har bir detalni tarjima qilish jarayonida namoyon bo‘ladi. Eng muhimi esa asar qahramonini tasvirlash jarayonidir.

“Tarjimon asar muallifining potret tasvirlarida qo‘llagan chizgilardan hech birnini e’tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Chunki portret xahakteristikasidagi har bir shtrix qahramon hayotida ro‘y bergan o‘zgarish, kesin burilish yoki ruhiy kechinmalarning izlarini aks ettirayotgan bo‘lishi mumkin” [Hamidov X., 2014: 69]. Asarda muallif bosh qahramonni quyidagicha tasvirlaydi:

“Dört yıl önce padişah, onu sipahiler arasında görmüş, güzellikini, yürekli tavırlarını beğenerek yanına almış, ona birçok görev vermiş, hatta bir yıl içinde çavuşbaşılığı kadar çıkarmıştı. Daha yirmi beş yaşındaydı. Gür siyah bıyıkları, şahin baklısı iri eli gözleri, geniş ve kalın omuzları; gösterişli yürüyüşü, her göreni hayran bırakırdı. Savaşlarda, ayrı ayrı yerlerinden şimdiye kadar otuz yara almış ve pek çok general kafasını mızrağına takarak paşalaraarmağan getirmiştir... O, bütün ordu içinde rakipsiz bir yüreklik, kahramanlık ve çabukluk örneğiidi. Yaşlı Zal Mahmud’tan daha güçlü olduğunu herkes biliyordu. Kuş gibi uçar, yıldırım gibi seğirtir, arslan gibi atılır, kaplan gibi parçalardır” [Ömer Seyfettin, 2014: 2]. Adib o‘z qahramonining portretini tasvirlar ekan, uning boshqalardan ajralib turuvchi jihatlariga urg‘u beradi. Hikoyaning ilk sahifalaridanoq, hatti-harakati, tashqi qiyofasi bilan kitobxoni o‘ziga jalb qiluvchi askar obrazi gavdalanadi. Ushbu jumla tarjimon tomonidan quyidagicha o‘girilgan:

“To ‘rt yil oldin podshohning o‘zi uni sipohiyalar orasida ko‘rib qolib, kelishgan qaddu basti, mardonavor yurish-turishiyu, o‘zini tutishi yoqib qolib yoniga chaqirib olgan, bir necha vazifa topshirib sinab ko‘rgach, bir yil ichida navkarboshi etib tayinlagan edi. To‘sın bey hali o‘sanda yigirma besh yoshlarda edi. Qalin qora mo‘ylovi, lochin nigohiyu, katta qora ko‘zları, keng yelkalari, qaddini g‘oz tutib qadam bosishini ko‘rgan odamni o‘ziga jalb qilmay qo‘ymasdi. Janglarda tanasining turli yerleridan o‘tti zmartta yaralangan, dushman generallarining kallalarini nayzasiga sanchib qo‘mondonlarga shaxsan topshirgan edi... U butun qo‘sishin ichida jasoratta tenggi yo‘q, epchil, ibratli qahramon edi. Keksa Zal Mahmuddan ham kuchliroq ekanligini barcha tan olgandi.Qush kabi uchqur, chaqmoq kabi tezkor harakat qilar, arslon kabi epchil, qoplon kabi yirtqich edi. “[Umar Sayfiddin, 2018: 82].

Asar tarjimasini tahlil qiladigan bo‘lsak, tarjimon qahramon portretini qoyilmaqom tarzda o‘zbek tiliga tarjima qilgan deya olamiz. Xususan, asliyatni o‘qigan kitobxon asarni o‘qiyotib ko‘z oldiga jasur, kuchli, qo‘rqmas, kelishgan, epchil bir askarni keltirsa, tarjima qilingan asarni o‘qigan kitobxonning ko‘z oldida ham aynan o‘sha qahramon gavdalanadi. Bunda tarjimonning mehnati-yu, mahorati

katta. Asliyatdagı tarixiy so‘z hisoblangan çavuşbaşı tarjimada *navkarboshi* shaklida berilgan va ma’no qoplangan.

“*Tosun Bey fena halde öfkelendi. Dişlerini sıktı. Padişahın otağı nasıl kaybolurdu. Bunuaklı almiyordu. Padişah, onca pek kutsaldı. Otağ, gözünde yeri değiştirilen bir Kâbe’ydi. Kâbe’si yıkılan bir inançının aceleciliğiyle ağır ve keskin mahmuzlarını atının karnına vurdu. Islak tuğlarıyla bayrak direkleri görünen sadrazam çadırına doğru saldırdı. Ama pek ileri gitmedi. Seğirdim ustaları yağmur içinde dolaşıyordu. Onu pek seven Kazasker Perviz Efendi’nin çadırını gördü. Yere atladi. Atını, koşan bir hizmetkâra verdi. Kahramanlık şiirlerini okuduğu Perviz Efendi, çadırın içinde ayaktaydı*”[Ömer Seyfettin, 2014: 4].

Tarjima nusxada ushbu jumla: “*To ‘sin bey g‘azablandi. Lekin bir so ‘z demadi, tishini tishiga qo ‘ydi. Podshohdek shaxsning o ‘tovi o ‘z-o ‘zidan g‘oyib bo ‘lishi mumkinligi uning aqliga sig ‘masdi. Podshoh uning nazarida shunchalik muqaddas zot edi-ki, uning o ‘tovi To ‘sin bey uchun bamisolı Ka ’ba edi. Ka ’basi buzilgan bir iymonli musulmon singari To ‘sin bey shahdga minib og‘ir uzangisi bilan otning qorniga niqtadi. Yomg‘ir ostida jiqqa xo ‘l bo ‘lgan bayroq yaqqol ko ‘rinib turgan bosh vazir chodir sari ot soldi. Ammo, uncha yaqinlashmadı. Xizmatkor ustalar yomg‘irda uyoqdan-buyoqqa yurishardi. Uni ko ‘rganda samimi ehtirom ko ‘rsatadigan Qoziaskar Parvez afandining chodiriga qaradi. Keyin otdan sakrab tushib jilovini yugurib kelib ta ’zim qilgan xizmatkorning qo ‘liga tutqazdi. Qahramonlik haqidagi she’rlar o ‘qib yuradigan Parver afandi chodir ichida edi*”[Umar Sayfiddin, 2018: 83] shaklida o‘zbek tiliga o‘girilgan. “Asar qaysi tilga tarjima qilinayotgan bo ’lsa, o ‘sha tilda ravon yangrashi, o ‘sha tilga xos bo ‘lgan vositalar yordamida yoritilishi kerak”[Isoqova Sh.I., 2004:14].

Obrazlilikni kuchaytirish maqsadida xizmatkorga nisbatan oddiygina “*yugurib kelgan*” so‘zini qo‘llamasdan, “*yugurib kelib ta ’zim qilgan*” so‘zidan foydalangan. Haqiqatdan ham xizmatkorlar o‘z boshliqlarini oldiga kelib ta ’zim qilib, ularga beriladigan vazifani kutib turishadi. Yoki bo‘lmasa, “*Onu pek seven Kazasker Perviz Efendi*”(uni juda sevadigan Qoziaskar Perviz afandi) jumlasining o‘rniga “*Uni ko ‘rganda samimi ehtirom ko ‘rsatadigan Qoziaskar Parvez afandi*” jumlasini qo‘llab tarjima mukammalligiga erishgan. Turk ilidagi otağ so‘zi o‘zbek tiliga ham o ‘tov shaklida çadir esa chodir shaklida tarjima qilingan.

“*Yaşlı Bey, bütün memlekette kahramanlığı dillere destan olan bu al yanaklı, gür büyükli, dağ parçası, görünüşü saygı uyandıran, yiğit güzel bahadıra ıslak gözleriyle uzun uzun baktı. Acaba niçin bu öfkeye uğramıştı? Böyle bir arslanı,*

celladin eline vermek ne büyük bir insafsızlığı. Hangi vicdan buna razı olurdu?”[
Ömer Seyfettin, 2014: 2]. Jumlaning tarjima nusxasi quyidagicha:

“Keksa bey mamlakatta qahramonligi tillarga doston bo’lgan bu ol yonoqli, baroq mo’ylovli, tog’day gavdasiyu salobati har kimda ehtirom uyg’otadigan, istarasi issiq bahodirga yoshli ko’zlar bilan termulib turib o’ylanib qoldi. Qiziq nima uchun podshohning g’azabiga uchradi bu o’g’lon? .. Bunday arslonni jallodning qo’llariga berish insofsizliktan boshqa narsa emasdi. Qaysi vijdon bunday qabih ishga yo’l qo’yishi mumkin?”[Umar Sayfiddin, 2018: 91]

Tarjimadan ko’rinadiki, asardagi har bir so‘zni mutarjim asl nusxaga monand bera olgan. Xususan, jumladagi qahramon portretini o’ziga xosligini o’zbek tilida berish uchun kerakli ifodalarni topgan. Masalan, *al yanaklı uchun ol yonoqli, gür bıyıklı ni ifodalash uchun baroq mo’ylovli, dağ parçası uchun tog’day gavdasi, yiğit güzel bahadır* ni berish uchun esa *istarasi issiq bahodir* birikmalarini qo’llagan vama’no asliyatdan uzoqlashmagan.

Keyingi misolga e’tibor qaratamiz:

“Silahtar Cafer Ağa’nın da olabilirdi, padişahla onun yazısı, farksız derecede birbirine benzerdi... Fermanı katladı. Yine keseye soktu. Balmumunu hohladı. Mührü eski yerinden hafifçe yapıştırdı. Azrailin kanadından kopma kanlı bir tüy kadar hafif olan bu müthiş bez içinde, işte hayatı duruyordu. Evirdi çevirdi. Böyle... Bu müthiş şeye bakarken, kafasından hep eremediği dilekleri açıklayamadığı istekleri geçti. Bu dakikaya kadar ne mutluydu. Padişahın en sevgili gözdesiydi. Gördüğü iyilikleri düşündü. Süvarilik zamanlarını hatırladı. Daha on beş yaşındayken bile gücü, yiğitliği, görenleri şaşırtıyordu. Cirit oyunlarında, güreşlerde, vuruşmalarda hep birinci geliyordu” [Ömer Seyfettin, 2014: 7]. Tarjima nusxasi:

“Alahador Jafar og’aning husnixatimi? .. Podshoh bilan uning husnixatini farqlash qiyin edi... Farmonni buklab g’ilofga soldi. Ustidagi mumni “kuh-kuh”lab, muhrni yana eski joyiga sekin yopishtirdi. Azroil qanotidan yulingan qonli patdek yengil va daxshatli mato ichida uning hayot-mamoti masalasi turar edi. Nomani olib u yoq bu yog’iga qaradi. Bu daxshatli nomaga qarar ekan, hayolidan erisha olmagan orzulari, hali hech kimga ayta olmagan istaklari o’tdi. Shu ongga qadar qanchalar baxtiyor edi u. Podshohning eng suyukli askari edi u. Undan ko’rgan yaxshiliklarini o’yladi. Suvoriy bo’lgan vaqtlarini esladi. O’n besh yoshida uning kuchini, yigitligini ko’rganlar xayron qolishar edi. Ot choptirishda, kurashlarda doim birinchi kelar edi”[Umar Sayfiddin, 2018: 89].

XULOSA

Asliyatdagi ma’no o‘z ifodasini topgan deya olamiz. Turk tilidagi har bir so‘z tarjimon e’tiboridan chetda qolmay, o‘zbek tiliga o‘girilgan. Xususan, o‘yin nomlari *cirit oyunları*, *ot choptirish*, *güreş* esa *kurash* tarzida o‘girilgan. Asliyatdagi *vurusma* so‘zini esa o‘zbek tilidagi *kurash* so‘zi o‘z ma’nosiga qamrab oladi. Shu boisdan tarjimon uni yana alohida berib o‘tirmagan.

Guvohi bo‘lganimizdek, asliyatdagi biron-bir detal tarjimon e’tiboridan chetda qolmay, mohirona shaklda tarjima qilingan. Personaj tasviriyu, oddiy so‘zlarni ta’sirchanqilib o‘girish, tarixiy leksikani aks ettirish borasida tarjimonning mahorati katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Рўзимбоев С. Таржима эрмак эмас, хакикий ижоддир. – Тошкент, 2015
2. HamidovX. O‘zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. Monografiya. – Toshkent: 2014.
3. Ömer Seyfettin, Ferman, Hikaye. – www.liseedebiyat.com. 2014. (Turk adabiyotining sara asarlari Umar Sayfiddin (hikoyalar). – Toshkent: ToshDSHI, 2018.)
4. Isoqova Sh.I. Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi. Filol.fan.nom.diss. – Toshkent: 2004.
5. Salomov G‘. Badiiy tarjimaning aktual masalalari. – Toshkent: Fan, 1977.
6. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). THE INFLUENCE OF THE POLITICAL SYSTEM OF CHINA ON THE FORMATION OF SOCIAL AND POLITICAL TERMINOLOGY. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17.